

## YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY HAYOTDAGI ROLI

**Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna**

Nizomiy nomidagi TDPU “Pedagogika” kafedrası  
dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD).

+998 90 903 51 06

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11210096>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizning siyosiy hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida, madaniyat, ilmu - fan, maktabgacha va maktab ta’limi, sog’liqni saqlash, sport kabi ijtimoiy sohalarda ayollarimizning o’rni va roli yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ayol, e’zozlash, e’tibor, xotin-qizlar, mehr-oqibat, sadoqat, lider, ma’naviy-ahloqiy qiyofa.

### THE ROLE OF WOMEN IN THE SOCIAL LIFE OF RENEWING UZBEKISTAN

**Abstract.** This article highlights the place and role of our women in the political life of our country, state and community management, all sectors of our economy, culture, science, preschool and school education, health care, and sports.

**Key words:** woman, respect, attention, women, kindness, loyalty, leader, spiritual and moral image.

### РОЛЬ ЖЕНЩИН В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ ОБНОВЛЯЮЩЕГОСЯ УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** В данной статье освещены место и роль наших женщин в политической жизни нашей страны, государственном и общественном управлении, во всех отраслях нашей экономики, культуре, науке, дошкольном и школьном образовании, здравоохранении, спорте.

**Ключевые слова:** женщина, уважение, внимание, женщина, доброта, верность, лидер, духовно-нравственный облик.

Barchamizga ma’lumki, ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligi ayollarga bo’lgan munosabat bilan belgilangan. Ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko’rsatish o’zbek xalqiga xos xususiyatdir. Darhaqiqat, hadisi sharifdagi “Jannat onalar oyog’i ostidadur”, “Avval onanga, yana onanga va yana onanga, so’ngra otanga yaxshilik qil”, degan benazir so’zlarda ham ana shu cheksiz ehtirom namoyon bo’lib turibdi.

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qo’shmoqdalar, ular jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha sohalarida faoliyat ko’rsatib, davlat hokimiyati va jamoat tashkilotlari faoliyatida keng ishtirok etishmoqda, yosh avlod tarbiyasiga, sog’liqni saqlash, ijtimoiy soha, sanoat, qishloq xo’jaligi va boshqa sohalarni rivojlantirishga munosib hissa qo’shmoqdalar

Respublikamizda ayollar bilan bog’liq masalalar davlat va jamiyatning diqqat markazidadir.

O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 58-modda “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”, “Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini

boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi" deb ta'kidlanishida, hamda bunga hayotning barcha jabhalarida amal qilinishi fikrimiz dalilidir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonadonlarimiz farishtasi bo'lgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu o'nta yaxshilik bo'lib qaytadi. Duogo'y momolarimiz, mushtipar onalarimiz va aziz opa-singillarimiz bu ehtirom va e'tiborning albatta qadriga yetadilar. Ayol qadri, inson qadri ulug'langan yurtda esa, tinchlik va farovonlik, ahillik va baraka albatta barqaror bo'ladi."<sup>1</sup>.

Yangilanayotgan O'zbekistonda globallashuvning umuminsoniy va milliy kadriyatlarga, urf-odatlarimiz, an'analarimizga, ayniqsa ular asosida xotin- qizlarimiz xayot tarziga ko'rsatayotgan ta'siri masalasi juda muhim. Mazkur holatni informatsion, texnologik, huquqiy, axlokiy, diniy aspektlarini tahlil etadigan bo'lsak, bugungi kunda global tarmoq birinchidan, undagi axborotlar tez yetib borishi va jamoatchilik fikrini to'g'ri shakllantirishga imkon bersa, ikkinchi tomondan ma'lumotlarni g'arazli maqsadlarda foydalanish, nopok g'oyalar targ'iboti bilan shug'ullanish xolatlari ham kuzatilmokda. Bu esa ayollarmiz ma'naviy- axlokiy qiyofasiga yot bo'lgan behayo saytlar, turli reklamalar va o'yinlar ko'rinishida amalga oshirilmokda, natijada hali hayotiy tajribasi kam bo'lgan yosh xotin-qizlarimizni ular hayotidagi eng muhim vazifalardan chalg'itish, kelajakka teran ko'z bilan qaramaslikka olib kelmoqda.

Ayol - jamiyat hayotining moddiy, ayniqsa ma'naviy asoslarini ta'minlovchi buyuk shaxsdir. Ayolning ma'naviy- axlokiy qiyofasini shakllantirish - bu davlat siyosati darajasidagi masala bo'lib, unda Sharqona ayol, uning oila, mahalla, jamoatchilik va davlat boshqaruvidagi ishtirokini atroflicha o'rganish talab etiladi. Bunda xotin-qizlarga ta'lim berish va ularni maqsadli yunaltirish, kasb-xunar o'rgatish, shu orqali jamiyatda o'z o'rni va hurmatiga sazovor bo'lish, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga daxldorligini oshirib borishi juda muhimdir.

Yangilanayotgan O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish uchun bir qancha vazifalar belgilab berilgan va ular bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilmokda. Ya'ni, oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tashkil etilishi, har bir mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi yangidan joriy qilinganligi, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Xotin-kizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash milliy dasturi qabul qilinganligi, Prezidentimiz tashabbusi bilan jamoatchilikka, avvalo, yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladigan, obru- e'tiborli ayollarni o'z safida birlashtirgan "Okila ayollar" harakati tashkil etilgani, shuningdek, barcha mexnat jamoalarida xotin-kizlarning muammolariga samarali yechim topish uchun "Ayollar kengashlari" tuzilganligi fikrimiz dalilidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 7-mart kuni Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida quyidagilarni alohida ta'kidlab mamlakatimizda xotin-qizlarning hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularga daxldor ijtimoiy muammolarni hal etishga ustuvor ahamiyat qaratilayotganligi ta'kidlandi. Jumladan:

<sup>1</sup> O'zbekistan Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalkaro xotin-kizlar kuniga bagishlab o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutqi. //Xalk suzi, 2023 yil 8 mart.

–2022 yil 872 mingdan ziyod xotin-qizlarning bandligi ta'minlandi. 233 mingdan ko'proq ayollarga 4 trillion 700 milliard so'm kredit ajratildi. 252 mingdan ortiq opa-singillarimiz mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlar va tadbirkorlikka o'qitildi.

–2022 yili 14 mingga yaqin opa-singillarimizning uy-joy sharoiti yaxshilandi, qariyb 7 ming nafar ehtiyojmand xotin-qizlarga ijara to'lovlari qoplab berildi.

–so'nggi yillarda "Ayollar daftari" doirasida ham katta tadbirlar amalga oshirilgani.

Qisqa muddatda salkam 642 ming nafar opa-singillarimizga amaliy yordam ko'rsatilgani alohida ta'kidlandi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, qizlarimiz, ayollarimizning jismonan baquvvat bo'lishi bizning bundan keyingi taraqqiyotimizning muhim zaminlaridan hisoblanadi. Bugungi kunda ko'plab yosh qizlar, ayollarimizning asosiy maqsadi ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar jarayonida faollikni oshirish, yuksak ma'naviy fazilatlarini mujassamlashtirish, milliy tafakkurni shakllantirishdan iborat.

Yosh ayollar, qizlarni ish bilan band etish, tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishda, kichik va o'rta biznesda, ayniqsa qishloq joylarida xotin – qizlar tashabbuslarini qo'llab quvvatlash, ularga huquqiy va ijtimoiy shart – sharoitlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

#### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli «2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y. 6-son, 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yildagi 21 dekabrda Pf-208 oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2022 yildagi PQ-323-son qarori / Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 19.07.2022-y., 07/22/323/0647-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xalkaro xotin-kizlar kuniga bagishlab o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutqi. //Xalq so'zi, 2023 yil 8 mart.